




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, dastlabki
ma'lumot*




**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: 76-225-65-74**


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda



Tarkibiy qism, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Uyushmagan savdo

Yirik korxonalar

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 669,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **5,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **264,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **147,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 746,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,2 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **659,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,8 %**) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



Jami Uyushmagan savdo
659,4


100 %

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 669,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **105,7 %** ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **92,8 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **7,2 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 24,6 % ulush bilan 903,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,1 % ulush bilan 40,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Uzun (113,4 %), Termiz sh.(111,9 %), Bandixon (108,6 %) va Qumqo'rg'on (107,9 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Termiz sh. qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3 669,9	105,7	264,5	147,5	3 405,4	103,4
Termiz sh.	711,6	111,9	184,9	212,3	526,7	95,9
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	143,9	106,2	1,9	46,0	142,0	108,1
Angor	163,9	102,8	2,8	84,9	161,1	103,2
Bandixon	40,2	108,6	0,8	95,7	39,4	108,9
Boysun	158,8	102,4	1,2	35,7	157,6	103,9
Muzrabot	148,9	103,8	1,5	81,6	147,4	104,1
Denov	903,5	104,4	30,3	131,8	873,2	103,7
Jarqo'rg'on	185,0	106,4	7,0	77,4	178,0	108,0
Qumqo'rg'on	155,0	107,9	2,2	51,2	152,8	109,7
Qiziriq	154,5	106,5	2,4	75,5	152,1	107,2
Sariosiyo	130,6	91,5	2,0	27,8	128,6	94,9
Termiz	79,2	102,2	5,2	48,1	74,0	111,0
Uzun	153,9	113,4	4,0	189,8	149,9	112,2
Sherobod	203,0	103,2	7,6	107,9	195,4	103,0
Sho'rchi	337,9	103,8	10,7	90,0	327,2	104,3



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **47,5 %** ga o'sdi va **264,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,2 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 405,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **3,4 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR
KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,2 %**), Muzrabot (**99,0 %**), Qumqo'rg'on Oltinsoy (**98,7%**) va Qumqo'rg'on (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**26,0 %**), Termiz (**6,6 %**), Jarqo'rg'on (**3,8 %**) va Sherobod (**3,7 %**) tumanlarda kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar


AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-mart oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 334,3** ming so'mni (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **3,2** % ga oshdi) tashkil etdi.


Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1 334,3	103,2
Termiz sh	3 737,1	107,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	780,2	103,9
Angor	1 190,1	100,8
Bandixon	508,9	105,6
Boysun	1 324,2	100,4
Muzrabot	1 009,3	101,7
Denov	2 254,1	102,4
Jarqo'rg'on	813,2	104,1
Qumqo'rg'on	634,6	105,6
Qiziriq	1 295,1	104,1
Sariosiyo	598,4	89,5
Termiz	984,2	100,0
Uzun	855,8	109,9
Sherobod	1 002,5	100,8
Sho'rchi	1 547,2	101,3

Eng yuqori hajmga ega hududlar





Eng past hajmga ega hududlar



* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**3 737,1** ming so'm), Denov (**2 254,1** ming so'm), va Sho'rchi (**1 547,2** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **659,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **8,8 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **254,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **30,7 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **401,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **-1,6 %**) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	659,4	108,8	254,3	130,7	405,1	98,4
Termiz sh.	26,4	100,4	25,3	96,3		
tumanlar:						
Oltinsoy	53,9	120,3	12,7	122,7	41,2	119,4
Angor	34,3	102,0	20,4	127,2	13,9	79,0
Bandixon	31,0	110,2	2,7	115,5	28,3	109,6
Boysun	43,3	90,2	18,0	124,4	25,3	75,2
Muzrabot	73,8	106,3	22,5	149,7	51,3	94,4
Denov	63,0	95,0	33,8	159,0	29,2	64,8
Jarqo'rg'on	45,6	140,9	19,0	156,6	26,6	131,3
Qumqo'rg'on	59,4	132,1	21,3	127,5	38,1	134,7
Qiziriq	45,5	116,8	13,1	173,0	32,4	103,2
Sariosiyo	45,6	78,3	14,9	121,7	30,7	66,8
Termiz	22,3	114,0	2,6	212,3	19,7	107,2
Uzun	42,2	162,9	19,3	142,1	22,9	187,0
Sherobod	21,6	97,1	13,0	89,8	8,6	110,4
Sho'rchi	51,5	109,1	15,7	143,9	35,8	98,6

2022- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **254,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **405,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **254,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**122,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **405,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **296,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **98,7** mlrd. so'mni, otlar **7,2** mlrd. so'mni, parrandalar **2,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,8 %** ni tashkil etib, **67,8** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,4 %** ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	67,8	100,4	2,1	32,0	65,7	107,8
Termiz sh.	23,8	104,1			23,8	104,3
tumanlar:						
Oltinsoy	1,6	109,8			1,6	109,8
Angor	2,8	107,1			2,8	107,1
Bandixon	0,2	113,1			0,2	113,1
Boysun	1,8	114,5			1,8	114,5
Muzrabot	1,8	125,8			1,8	125,8
Denov	12,1	104,0			12,1	104,0
Jarqo'rg'on	2,3	115,1			2,3	115,1
Qumqo'rg'on	2,0	112,2			2,0	112,2
Qiziriq	1,6	107,4			1,6	107,4
Sariosiyo	2,1	26,8			2,1	115,7
Termiz	4,2	103,4	0,2	45,3	4,0	111,5
Uzun	3,6	2,4 m	1,9		1,7	114,9
Sherobod	3,9	117,0			3,9	117,0
Sho'rchi	3,2	106,2			3,2	106,2


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **745,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **7,2 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **122,8** mlrd. so'mni (**2,4 %** ga kamayish) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	745,5	107,2	122,8	97,6	622,7	109,3
Termiz sh.	187,3	94,8	32,2	63,6	155,1	105,5
tumanlar:						
Oltinsoy	18,5	102,8	5,0	84,4	13,5	111,8
Angor	29,6	107,6	0,1	53,6	29,5	107,9
Bandixon	2,9	102,7			2,9	106,3
Boysun	8,6	109,1	0,2	49,4	8,4	112,7
Muzrabot	10,4	93,7	6,9	88,1	3,5	106,9
Denov	227,3	114,6	39,1	106,0	188,2	116,5
Jarqo'rg'on	51,4	91,8	1,4	14,2	50,0	107,6
Qumqo'rg'on	47,9	2,3 m	33,9	4,4 m	14,0	103,6
Qiziriq	11,7	99,0			11,7	102,9
Sariosiyo	49,7	104,7	1,1	163,9	48,6	103,9
Termiz	57,5	103,2	2,9	59,3	54,6	107,4
Uzun	9,1	103,0			9,1	105,8
Sherobod	16,3	106,7			16,3	108,0
Sho'rchi	17,3	110,6			17,3	112,0

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qumqo'rg'on (**438,1 %**), Sariosiyo (**163,9 %**) va Denov (**106,0 %**) tumanlarida kuzatildi.